IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOXIYATINI OSHIRISHDA AXBOROT VA INNOVATSION YONDOSHUV SAMARADORLIGI

Usmonova Zuhro
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni intellektual saloxiyatini oshirishda axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanib ijodiy-uslubiy malakalarini shakllantirish mumkin. Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari yoritilgan.

Tayanch iboralar: axborot va innovatsion texnologiyalar,mustaqil ish shakllari, o‘quvchilarni intellektual saloxiyatini oshirishda intefaol vositalardan foydalanish samaradorligi.

Аннотация: Формирование профессионально-методических умений возможно на занятиях в организации самостоятельной деятельности учащихся с использованием информационных и инновационных технологии. В работе рассматривается методические основы использования информационных и педагогических технологий при организации самостоятельной деятельности учащихся.

Ключевые слова: информационные и инновационные технологии, формы самостоятельной работы, эффективность использования интерактив-ные презентации для организации самостоятельной работы учащихся.

The summary: The formation of professional - methodical skills is possible on occupations in organization of independent activity of the students with use information and innovation of technology. In job is considered methodical bases of use of information and pedagogical technologies at organization of independent activity of the pupils.

Key words: information and innovation technology, form of independent job, efficiency of use interactive presentations for organization of independent job of the pupils.

«2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari buyicha xarakatlar strategiyasi» da yurtimiz ta’lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta’minlash, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. CHunki, bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz bilimga chanqoqligi, o‘qish, izlanish va jamoat ishlarida faolligi, ilmiy va ijodiy salohiyati bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi bilan ham ajralib turadi. SHuning uchun ham barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini, shu jumladan talabalarning mustaqil ishlarini yangi axborot va innovatsion texnologiyalari asosida tashkillashtirish hamda ulardan samarali foydalanish eng muhim mavzulardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchilarning axborot texnologiyalari asosida intellektual saloxiyatini oshirishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning fundamental bilimlarini, ko‘nikma va malakalarni, ijodiy qiziqish va tajribalarni yetarli ravishda shakllantirishdan iborat.

O‘quvchilarning mustaqil ishlash jarayonini axborot texnologiyalari asosida boshqarishning asosiy mohiyati- bu shu jarayonni shunday tashkil etishdan iboratki, bunda o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarsinlar va mustaqil izlash yo‘li bilan ilmiy tasavvurlash metodini o‘zlashtirsin, o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirsin, o‘zining o‘quv faoliyatida ijodiy yondoshuvga bo‘lgan qiziqishi rivojlansin hamda shu bilan birga ijodiy vazifasini muvffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlari, qobiliyatlari,

xarakterini mukammalashtirsin [2]. Bundan shu narsa kelib chiqadiki to‘g‘ri tashkillashtirilgan mustaqil ishlar nafaqat ta’limiy balki shaxsiy-ijodiy ahamiyatga ham ega bo‘ladi. O‘quvchilarda nazariy va amaliy masalalarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalari ma’lum bir miqdorda o‘quv jarayoni davomida shakllanadi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirish uchun quyidagi shart sharoitlarga ega bo‘lish kerak:

– o‘quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorgarligi;

– egallagan bilimlar motivatsiyasi va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini egallashi;

– barcha kerakli o‘quv-metodik qo‘llanmalar va ma’lumotlarning mav-judligi va ulardan foydalanish imkoniyatini mavjudligi;

– mustaqil ishlarni bajarilganligini muntazam nazorat qilib boruvchi tizimning mavjudligi va faoliyat ko‘rsatishi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari har qanday ta’lim turining ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlarining eng asosiy funksiyalari sifatida nazariy materiallarni sifatli o‘rganish, mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, bilimlarni ehtiyojga asosan doimiy to‘ldirish va yangilash, mustaqil ishlashning ratsional qoidalari va metodlarini o‘zlashtirish tushuniladi.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni mustaqil ishlashi uchun zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalari vositalari keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Axborot texnologiyalari vositalari o‘quvchilarning mustaqil ishlashida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi[2]:

– olingan ma’lumotlarni xotirada kerakli vaqtga saqlab turish, ularni tahrirlash, chop etish, nusxalash va hokoza;
– kerakli materiallarni ma’lum bir maqsadlar uchun yaratilgan mulьti-mediyali ma’lumotlar orqali interfaol usulida o‘rganish;
– turli axborot manbalariga, shu jumladan uzoqlashgan va taqsimlangan ma’lumotlar bazasiga, Internet tizim orqali butun dunyo bo‘yicha konfe-rensiyalarga kirish;
– hamkorlik telekommunikatsion loyihalarni , shu jumladan xalqaro, elektron konferensiyalarni tashkillashtirish.

Axborot va kompyuter texnologiyalari o‘quvchilarga o‘zlari uchun yangilik hisoblangan ma’lumotlar bilan mustaqil ishlash, muhim va shaxsiy-ijodiy ahamiyatli faktlarni ajratish ko‘nikmalarini egallash imkonini beradi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirish o‘quv materialari-dan foydalanishni o‘rganish, mukammallashtirish va ijodiy yondoshish, yangi ijodiy bilimlarni egallash, interfaollikni rivojlantirish, ilmiy adabiyotlar va axborot resurslar bilan ishlash amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllanishi bilan asoslanadi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirishda ularni mustaqil o‘rganish, fikrlash, kerakli muammolarni anglab yetishga va uning yechimlarini mustaqil izlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun mashg‘ulotlarning barchasi o‘qituvchi o‘quvchini quyidagilarni amalga oshirishga to‘g‘ri yo‘naltirish kerak bo‘ladi:

a) uyga berilgan vazifalarni bajarish va qo‘shimcha axborotlarni izlab topish va uni o‘rganish zarurligi;

b) berilgan topshiriqlarni bajarilish muddatiga rioya etish va uni talab darajasida bajarilish ma’suliyatini sezish.

O‘quv jarayonida bilim olish va o‘rganish jarayonining an’anaviy, innovatsion va mustaqil shakllaridan birgalikda foydalanish o‘quvchilarni talab darajasida kerakli bilimga ega bo‘lish, mustaqil tasavvurlash va fikrlash, ta’lim jarayoni o‘zining shaxsiy rejalashtirilgan maqsadlariga erishishning asosiy yutug‘i sifatida qabul qilish qobiliyatlarini mukammalshtirishda kata ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirishda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish orqali o‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish asosiy vazifa hisoblanib, bu jarayonda o‘qituvchi boshqaruvchi, o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanishi lozim.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

- talabalarning mashg‘ulot davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini ta’minlanishi;
- o‘qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirishda turli xil innovatsion, shu jumladan interfaol “Zinama- zina” , “Baliq skeleti”, “Venn diagrammasi”, “Munozara”, “Aqliy hujum”, va boshqa texnologiyalardan foydalanish o‘z samararasini beradi.

Masalan, “Zinama- zina” texnologiyasi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. O‘quvchilar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o‘rganadilar, o‘tilgan mavzuni sub’ekt o‘qitish orqali mustah-kamlaydilar.

“Venn diagrammasi” texnologiyasi informatika darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

“Baliq skeleti” texnologiyasi orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga echilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi

Keys uslubi va texnologiyasi ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual saloxiyatini oshirish ning ilg‘or vositasidir [3]. Keys ta’lim maqsadini amalga oshirish, amaliy muammoli vaziyatlarni taxlil etish va o‘quv natijalariga kafolatli etishishning optimal usul va vositalari majmuasidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir.

Keys texnologiyasida o‘quvchilarga o‘quv va o‘quv-amaliy materiallar «Keys» yoki portfel ko‘rinishida beriladi. Bu materiallar kompakt-disk yoki boshqa axborot tashish vositalarida joylashgan bo‘ladi.

O‘quvchilarda unda berilgan nazariy ma’lumotlarni mustaqil o‘rganish bilan birga, amaliy masalalar echimiga nisbatan o‘zlarining fikr mulohoza-larini bildiradilar.

Axborot va innovatsion yondoshuv orqali o‘quvchilarni mustaqil bilim olishi ma’lum bir miqdorda o‘zining natijasini yoki samarasini berish kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh va ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o‘qitish jarayonining asosi va samaradorligi bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim tizimida axborot va innavatsion texnologiyalar asosida intellektual saloxiyatini oshirish o‘quvchilarni mustaqil bilim olishi, ularning faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo‘lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo‘lgan muammolarning ijobiy echimlarini mustaqil izlab topish va o‘z fikr mulohazalarini bayon etish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekistan Respublikasi Prezidentining Farmoni “2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”. //7 aprel, 2017 yil.
2. Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов / Высшее образование в России, №6, 2003
3. Демеусов А. Особенности планирования, организации и контроля внеаудиторной самостоятельной работы студентов.//Высшая школа Казахстана,2004. - С.52-54.
4. Фуряева Т.В. Методические рекомендации по организации самостоя-тельной работы студентов. – Красноярск, 1987.